



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 12-dekabr, seshanba,
147 (23.868)-son

**KUN
HIKMATI**

Xatosidan vijdoni
qiynalgan odam
bitta narsadan
yutadi - shu xatoni
takrorlamaydi

Zarafshon



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> https://twitter.com/zarnews_uz



QISHLOQ XO'JALIGI FIDOYILARI TAQDIRLANDI

Har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Sana munosabati bilan Samarqand shahridagi "Diyora" bazmoghida bayram tadbiri o'tkazildi.

Unda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga hissa qo'shayotgan ilg'or dehqon va fermerlar, bog'bon va chorvadorlar, pillakor va sohibkorlar, suvchi-irrigatorlar, olimlar, agronom va mexanizatorlar, agroklastarlar vakillari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov qishloq xo'jaligi xodimlarini bayram bilan tabriklab, bu yil erishilgan natijalarni e'tirof etdi.

Qishloq xo'jaligi sohasi eng sharafli, ayni vaqtda mashaqqatli tarmoqlardan biridir, dedi E.Turdimov. Hech bir yil, hech bir mavsum soha vakillari uchun oson kechmaydi, o'ziga xos sinovlar, murakkabliklar bo'ladi. Ayniqsa, bu yil yoz faslining keskin issiq bo'lishi, suv resurslari taqchilligi dehqonlarimizning iroda hamda matonatini sinovdan o'tkazdi.

Sohada uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi xodimlari bu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, salmoqli natijalarga erishdilar. Jumladan, yakuniga yetayotgan yilda viloyatimizda 713 ming tonna g'alla, 274,1 ming tonna paxta, qariyb 2 million tonna sabzavot, 760 ming tonna kartoshka, 172 ming tonna poliz mahsulotlari, 388 ming tonna meva, 637 ming tonna uzum, 3,3 ming tonna pilla,

338 ming tonna go'sht hamda 1,5 million tonna sut tayyorlashga erishildi.

Bunda viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 12 ta paxta-to'qimachilik, 13 ta g'allachilik, 13 ta meva-sabzavotchilik, 6 ta kartoshkachilik va 1 ta dorivor o'simliklarni yetishtiruvchi klasterlar faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi.

Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilib kelayotganimga yetmish yildan oshdi, dedi Paxtachi tumanidagi "Paxtachi elita urug'chiligi" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Norxol Qurbonova. Jamiyatimiz tasarrufida 111 gektar yer mavjud bo'lib, unda paxta, g'alla, soya va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekiladi. Bu yil paxtadan salkam 46 sentner, soyadan 32, g'alladan esa 60 sentnerdan ortiq hosil oldik. Soya yetishtirish bo'yicha respublikada ikkinchi o'rinni egalladik. Joriy yilda 5 milliard so'm daromad qildik.

Bayram tadbirida qishloq xo'jaligi xodimlarining bir guruhi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi fidoyisi", "Veterinariya fidoyisi", "Suv xo'jaligi a'lochisi", "Chorvachilik fidokori" ko'krak nishonlari, viloyat hokimligining faxriy yorliq va sovg'alari bilan taqdirlandi.

Baxtiyor MUSTANOV.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi delegatsiya Xitoyda bo'lib turibdi.

Hokimlik vakillari hamda 100 nafardan ziyod samarqandlik tadbirkorlardan iborat delegatsiya tashrifining ilk tadbirlari Shanxay shahrida samarqandlik va xitoylik tadbirkorlar biznes-forumi bilan boshlandi. Forum qatnashchilari O'zbekiston va Xitoy rahbarlarining tashabbusi bilan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar izchil, jadal va samarali rivojlantirish yo'nalishi, o'zaro muloqotlar strategik sheriklik asosiga qurilayotganini e'tirof etishdi.

Biznes-forum doirasida viloyat hokimi "Lixi texnikani rivojlantirish" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Chjao Yatsin, "Shanghai Mastimes Electrical Technology Co.Ltd" hamda "ZTE" kompaniyalari vakillari bilan texnika va texnologiya sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qildi.

Ayni paytda Shanxay va Samarqand o'rtasidagi hamkorlik yanada kengaymoqda, dedi E.Turdimov. Ayniqsa, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi tashrifimizdan ko'zlagan maqsadimiz

SHANXAYDA BIZNES-FORUM



- biznes hamkorlikning yangi imkoniyatlarini o'rganish va xitoylik investorlarning istiqbolli loyihalarni viloyatimizda amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat.

Uchrashuvlarda Xitoyning yirik korxonalari va viloyatimiz tadbirkorlari iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

"Tiankou Group" kompaniyasi prezidenti Yuan Shaouxye bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish, "Great Wall Lee" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Li Changcheng bilan Paryariqda suv-nasos stansiyasini qurish loyihalari muhokama etildi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.

"SIZNI SHTAB ESHITADI!"

Viloyatimiz hududida kuz-qish mavsumida aholi va ijtimoiy soha obyektlarini ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi, ko'mir bilan ta'minlash, bu borada yuzaga kelayotgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish maqsadida hokimliklar, ijtimoiy soha tashkilotlari va kommunal soha korxonalarida uzluksiz ishlovchi shtablar tashkil etilgan.

Agar joylarda bu borada muammolar kuzatilsa, fuqarolar shtablarga murojaat qilishlari mumkin.

Viloyat hokimligi — 95-411-32-02,
95-411-52-02, 66-411-72-02;
Samarqand shahar hokimligi — 66-234-95-17, 66-234-95-16;
Kattaqo'rg'on shahar hokimligi — 66-456-31-34;
Kattaqo'rg'on tumani hokimligi — 66-414-19-71;
Bulung'ur tumani hokimligi — 66-442-12-05;
Samarqand tumani hokimligi — 66-612-51-85, 66-612-55-90;
Nurobod tumani hokimligi — 66-633-14-41;
Narpay tumani hokimligi — 55-705-54-10;
Past Darg'om tumani hokimligi — 66-465-14-91;
Ishtixon tumani hokimligi — 66-629-15-69;
Payariq tumani hokimligi — 66-425-22-56;
Paxtachi tumani hokimligi — 66-403-13-51;
Jomboy tumani hokimligi — 66-475-15-05;
Oqdaryo tumani hokimligi — 66-492-52-45;
Qo'shrabot tumani hokimligi — 66-646-13-66;
Toyloq tumani hokimligi — 66-666-50-85;
Urgut tumani hokimligi — 66-483-16-64;

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali — 66-239-78-12;

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ viloyat filiali — 95-500-97-52, 95-410-01-68;

Viloyat "Issiqlik manbai" davlat unitar korxonasi — 66-221-42-60;

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi — 66-233-09-41;

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi — 66-238-88-00;

Viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi — 95-411-44-00;

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi — 66-234-99-39; 66-234-99-48.

"TOSHKENT — SAMARQAND"

pulli avtomobil yo'lini qurish loyihasi ishlab chiqildi

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi farmoniga asosan, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida "Toshkent-Samarqand" pullik avtomobil yo'lini qurish loyihasi ishlab chiqildi.



Viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining ma'lum qilishicha, loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asos hujjatini ishlab chiqish uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tomonidan 350 ming AQSH dollari miqdorida grant mablag'i ajratilgan. Ushbu mablag' hisobidan Avstriyaning "ILF Consulting Engineers Austria GmbH" kompaniyasi tomonidan loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asosi ishlab chiqildi.

Loyihaning asosiy texnik-iqtisodiy asos hujjatini ishlab chiqish uchun esa YTTB 1,5 million yevro miqdorida mablag' yo'naltirdi. Bu ishni bajarish uchun o'tkazilgan tender savdoda Turkiyaning "Proyapi Mühendislik ve Müşavirlik A.Ş." (PROYAPI) kompaniyasi g'olib bo'ldi va 2022-yil sentabr oyida 1 million yevroga teng bo'lgan shartnoma imzolandi.

Bugungi kunga qadar konsultant tomonidan dastlabki hisobot va investitsiya oldi o'rganish loyihasi taqdim etilgan hamda ishchi guruh tomonidan qabul qilingan. Joriy yilning 27-iyul kuni Avto-

mobil yo'llari qo'mitasi sohaviy ilmiy texnik kengashining bayon-nomasi bilan konsultant kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan loyihaning trassirovka marshruti tasdiqlandi.

Viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi ishchi guruhi ishtirokida loyiha yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda loyiha bo'yicha bir qator masalalar ko'rib chiqildi.

Loyiha xalqaro standartlarga javob beradigan 305 kilometr uzunlikdagi avtomobil yo'lini o'z ichiga oladi. Mazkur yo'l I-a texnik toifali, 6 tasmasli avtomagistral talablari asosida quriladi. Shuningdek, barcha tutashma va inshootlar ustidan yangi ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurish hamda intellektual transport tizimi (ITS) ni o'rnatish ko'zda tutilgan.

"Toshkent-Samarqand" pullik avtomobil yo'li qurilishi natijasida harakat jadalligi taqsimlanadi. Yo'l qoplamasining yuk ko'tarish qobiliyati xalqaro standartlar bo'yicha 13 tonna hisobida amalga oshiriladi hamda avtomobil yo'lining xizmat qilish muddati 25 yil etib belgilangan.

YIGIRMA NAFAR SAMARQANDLIK AFV ETILDI

Davlatimiz rahbarining joriy yil 4-dekabrda "Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuza-lish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmo-niga asosan, jazoni ijro etish muassasalari hamda probatsiya nazoratidan muddatidan oldin shartli ozod etilgan 334 nafar shaxs afv etildi.

Ozodlik, tinchlik, huzur-halovat eng oliy saodat. Ayniqsa, o'z oilang, yaqinlaring, bag'rida tinch va farovon yashashdan ulug'ne'mat bormi dunyoda? Bu ne'matning nechog'li aziz ekanligini Prezidentimiz farmoniga ko'ra afv etilganlar orasida bo'lgan 20 nafar samarqandliklar ham his etish-moqda.

Konstitutsiya kuni oldidan shartli ozod

qilingan viloyatdoshlarimizning bir nafari ayol bo'lib, Samarqand shahri va Ishtixon tumani (4 nafardan), Urgut hamda Kattaqo'rg'on (3 nafardan), Paxtachi, Past Darg'om, Toyloq, Jomboy, Nurobod tumanlari va Kattaqo'rg'on shahri fuqarolaridir.

Bugun afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ul-

lanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun zarur choralarni ko'ryapmiz.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, amnistiya akti va afv bir-biridan farq qiladi. Xususan, amnistiya aktida aniq bir shaxsning ism-sharifi ko'rsatilmaydi. Aktda ma'lum toifadagi shaxslar (masalan, yoshlar, 60 yoshdan oshganlar, ayollar), odatda ijtimoiy xavfli qilmishni birinchi marta sodir qilayotganlar, uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlar jazodan ozod qilinishi yoki uning muayyan qismi kamaytirilishi belgilanadi. Oddiy qilib aytganda, jinoyatlar toifasi belgilanib, shu toifadagi jinoyatlarni qilgan shaxslar aniqlanadi.

Afv esa sudlar tomonidan hukm qilinganlar, individual tartibda aniq bir mahkumga nisbatan uning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga afv etishini so'rab yozgan yozma murojaatiga asosan amalga oshiriladi. Ya'ni, shaxs o'z aybini tan olib, pushaymon bo'lib, kechirim so'raydi.

Nodir KARIMOV,
viloyat IIB JXX probatsiya boshqarmasi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori.

Joriy yilning 7-18-oktabr kunlari viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Abilov boshchiligidagi delegatsiya Xitoyning Shandun provinsiyasida bo'ldi. Viloyatimiz tadbirkorlari Chin o'lkasi ishbiarmonlari bilan savdo va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish, hamkorlikni mustahkamlash borasida muzokaralar olib borishdi.

5 TA LOYIHAGA 84 MILLION DOLLAR SARMOYA

Jumladan, Shandun viloyatining yirik tadbirkorlari bilan uchrashuvda Xitoyning "CECEEP" kompaniyasi bilan tumanimizdagi "Muhammad 2017" MCHJ korxonasi o'rtasida qiymati 12 million dollar (shundan 6 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, ish o'rni 40 ta) bo'lgan quvvati 11 MWlik foto elektr stansiyasini tashkil etish loyihasi bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida dekabr oyida xorijlik hamkorlar va mutaxassislar Samarqandga kelishi kutilmoqda.

Sindaodagi forumda tumanidagi "Madina savdo belgisi" xususiy korxonasi rahbarlari "EMA CHINA TEXNIKA SERVICE" CO. LTD. kompaniyasi vakillari bilan kelishuvga erishdi. Tomonlarning muzokaralari asosida qiymati 25 million (shundan, 15 million dollar to'g'ridan-to'g'ri) dollarlik "Gips kukuni va gipsokarton mahsulotlarini ishlab chiqarish" loyihasini amalga oshirishga kelishildi. Ushbu loyihaning ishga tushirilishi bilan tumandagi 250 nafar fuqaro doimiy ish o'rniga ega bo'ladi.

Ishbiarmonlar har bir loyihani istiqbolli, talabgirlik, import o'rnini bosishi va eksport imkoniyatlarini hisobga olishdi. Shangi provinsiyasining Jinan viloyatida provinsiya rasmiy vakillari hamda Xitoyning yirik ishbiarmon doira vakillari bilan uchrashuvda ham bu jihatlariga e'tibor qaratildi. Ikki tomonning o'zaro fikr almashishi natijasida tumandagi "ASIA KVARTS" korxonasi va "CNBM KOMPANY" kompaniyasi o'rtasida shisha, temir-beton, shifer ishlab chiqarish uchun dastlabki qiymati 30 million dollarlik kelishuv imzolandi. Ushbu loyihada 24 million dollar xorijiy investitsiya kiritiladi va 310 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Mazkur loyihaning ahamiyati biz uchun juda muhim. Chunki

respublikamizda shishani qayta ishlash, qurilish sohasida sifatli temir-beton mahsulotlariga ehtiyoj juda katta. Shu bois ham bu kelishuv katta istiqbolli kelishuvlardan biri sifatida qayralmoqda.

Yana bir kelishuvga ko'ra, tumandagi "Alisher poliz ekinlari" fermer xo'jaligi va JINAN kompaniyasi bilan hamkorlikda gips kukuni va gipsokarton mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qiymati 12 million dollar bo'lgan loyiha uchun 4 million dollar xorijiy investitsiya kiritiladi va 100 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Dekabr oyida xorijlik hamkorlar va mutaxassislar tumanga kelib, loyihani ishga tushirish bo'yicha jarayonni boshlashi kutilmoqda.

Chunki Xitoy qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash borasida katta tajribaga ega. Ularning tajribasidan foydalanib, yangi turdagi ekinlar parvarishlash, mahsulotni qayta ishlash bo'yicha hamkorlikda yangi loyihalarni ishga tushirish mumkin.

Bu yo'nalishdagi uchrashuvlarda dunyo bo'ylab tarkibida shakar bo'lgan "Steviya" o'simligini yetishtiruvchi "HANWUL" korxonasi bilan dastlabki qiymati 5 million dollarlik kelishuvga erishildi. 150 kishini ish bilan ta'minlovchi loyiha negizida keyinchalik bosqichma-bosqich asalarichilik va boshqa qishloq xo'jalik loyihalari amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida umumiy qiymati 84 million dollar, shundan 54 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, 850 ta doimiy ish o'rni yaratiladi. Xitoylik investorlarga loyihalar amalga oshiriladigan manzillar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Mansur ABDUNABIYEV,
Paxtachi tumani hokimi o'rinbosari.

Viloyat hokimining farmoyishi bilan Samarqandda ijtimoiy soha obyektlari hamda turarjoy binolarini ishitish mavsumi joriy yilning 10-noyabridan boshlangan. Ammo ayrim hududlarda haligacha kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari yakunlanmagan yoki nomigagina bajarilgan. Past Darg'om tumanidagi maktablar va sport obyektlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati bilan ta'nishib, bunga amin bo'ldik.

Yaqinda viloyat hokimi ta'lim sohasi mutasaddilari bilan o'tkazilgan uchrashuvda maktablarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash holatini tanqid qilib, Nuroboddagi 19 ta, Past Darg'omdagi 10 ta, Kattaqo'rg'on tumandagi 5 ta ta'lim muassasasini qishga tayyorlash va ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilmaganini ta'kidlagan edi.

Past Darg'om tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, tumandagi 128 ta umumiy o'rta ta'lim maktabining to'rttasi gaz bilan, 124 tasi ko'mir bilan isitilmoqda. Mavsum oldidan maktablarning issiqlik tizimi o'rganilib, 4239 tonna ko'mir tarqatilgan. Ehtiyojga qarab yana qo'shimcha ko'mir berilishi ham rejalashtirilgan.

Bu ma'lumotlardan tumandagi maktablarda ishitish tizimi bo'yicha muammo yo'qdek. Ammo... Tumanning Samarqand mahallasida joylashgan 21-umumta'lim maktabida ikki ming nafardan ziyod o'quvchi o'qiydi. Muassasadagi 16 ta qozon gaz bilan isitishga mo'ljallangan bo'lib, 60 tonna ko'mir berilgan.

Issiqlik tizimi gazlashgan maktabni ko'mir bilan isitish uchun qozonlar almashtirilmadi, - deydi maktabda vaqtinchalik direktor vazifasini bajaruvchi M.Oymatov. - Tizimdagi nosozlik bartaraf etilgunga qadar maktabni gaz bilan isitishga ruxsat berilgan edi. Ammo maktab gaz bilan ham, ko'mir bilan ham isitilmayapti va darslar sovuq xonalarda o'tilmoqda. Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining gazdan qarzi borligi sababli maktabda gaz uzib qo'yilgan va isitishga ham ruxsat berilmagan.

Tumanning Po'latchi mahallasidagi 28-IDUMda 550 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Muassasa gaz bilan isitishga mo'ljallangan, ammo bosim pastligi sababli o'quv xonalari haminqadar isitilmayapti. Sport zalining issiqlik tizimi to'liq ishdan chiqqan. Buning ustiga, maktabda sport jihozlari yetish-

Past Darg'omdagi maktablar NEGA ISITILMAYAPTI?

gan, ammo bosim pastligi sababli o'quv xonalari haminqadar isitilmayapti. Sport zalining issiqlik tizimi to'liq ishdan chiqqan. Buning ustiga, maktabda sport jihozlari yetish-



uchun joriy yil 30 tonna ko'mir berildi. Inshootlarning ikkitasi ta'mirlanib, 2014-yil Bo'ston mahallasida qurilgan suv havzasida suvning o'zi yo'q va isitish tizimi umuman ishlamaydi. Ushbu suv havzasi 2021-yilgacha gaz bilan isitilgan va 331

million so'mdan ziyod qarzdorlik borligi uchun uzib qo'yilgan. Ayni paytda bazani isitish uchun ko'mirga moslab ta'mirlash kerak. Shuningdek, Olmazor mahallasida joylashgan sport bazasi ham to'liq ta'mirga muhtoj. Inshootlarni va issiqlik tizimini ta'mirlash bo'yicha joriy yil viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi hamda tuman hokimligiga murojaat qildik va dasturga kiritish choralarini ko'rilishi ma'lum qilindi.

Tumanning Olti qahramon mahallasida joylashgan 2-sport maktabi 2018-yilda qurilgan bo'lib, universal sport zaliga ega va barcha sharoit yaratilgan. Sport maktabi direktori Farrux Xayriddinovning aytishicha, mahallada "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" tizimi asosida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari doirasida workout sport maydonchasi foydalanishga topshirilgan. Muassasa hududi obodonlashtirilib, ikki yuzdan ziyod mevali va manzaralari daraxt ko'chatlari o'tqazilgan.

Joriy yildan ta'lim muassasalarida issiqlik tizimini yaxshilash maqsadida isitish qozonxonalari gazdan ko'mirga o'tkazish choralarini ko'rilmog'na. Ammo gazlashgan maktablarning qozonxonalari ko'mir bilan isitishga moslashtirilmasdan muassasalarga ko'mir tarqatilgan va gaz uzib qo'yilgan. Natijada maktablarni isitib bo'lmayapti va o'quvchi hamda o'qituvchilar sovuq xonalarda o'tirishga majbur bo'lmoqda. Gazdan ko'mirga o'tkazilgan maktablarga tarqatilgan tonnalab ko'mir hali ochilgani ham yo'q. Mas'ullar buni qanday izohlaydi?

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.



maydi, bor-yo'g'i uchta sport turidan to'garak o'tilmoqda. Ushbu mahallada joylashgan 125-umumta'lim maktabi ham isitilmayapti.

Maktabimiz 2022-yilda foydalanishga topshirilgan, - deydi maktab direktori Surayyo Ahmedova. - Hozirda 1170 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Maktabimiz gazlashgan edi, joriy yil ko'mir bilan isitilishi aytilib, gaz o'chiriladi va 40 tonna ko'mir berildi. Lekin isitish tizimi ko'mirga moslashmaganligi uchun xonalarga issiqlik yetkazib bo'lmayapti.

Tumanda 397 ta sport inshooti bor. Shundan ikkitasi sport maktabi bo'lib, 2270 nafar o'g'il-qiz mashg'ulotlarda qatnashadi. Terma jamoaning asosiy tarkibida 18 nafar, zaxirada 36 nafar sportchi bo'lib, musobaqalarda yur-timiz sharafini munosib himoya qilishmoqda.

Muassasamizga qarashli uchta sport bazasi bor, - deydi tumandagi 1-sport maktabi direktori Sohib Mamasoliyev. - Ularni isitish

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 674 ming tonna don (2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,1 foizga ko'p) yetishtirilgan.

Don yetishtirishning umumiy hajmida 84,8 foiz hosil fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

XALQOBOD SANOAT HUDUDIGA AYLANADI

Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlash va aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Viloyatimizda ham bugun "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi va tuman, shaharlarda uning filiallari, kichik sanoat zonalarini, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

Payariq tumanidagi Xalqobod mahallasida kichik sanoat zonasi tashkil etilib, zarur infratuzilma yaratildi. Ayni paytda bu yerda o'ndan ortiq tadbirkorlik sub'ekti tomonidan ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmog'na.

Yaqinda kichik sanoat zonasida "Oltin tuproq invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan umumiy qiymati 2 million AQSh dollari bo'lgan yog'-moy ishlab chiqarish korxonasi birinchi bosqichi ishga tushirildi va 50 ga yaqin ish o'rni yaratildi.



Tuman sektor rahbarlari va tadbirkorlar yangi korxonalar faoliyatini bilan tanishdi. Shuningdek, zonada amalga oshirilayotgan boshqa loyihalar, tadbirkorlar uchun yaratilgan imkoniyat va qulayliklar haqida ma'lumot berildi.

Tuman mas'ullarining ta'kidlashicha, Xalqobod tez orada Payariqning asosiy sanoat hududiga aylanadi. Bu yerda yigirmaga yaqin ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat boshlaydi.

Jumladan, "Elektro texnik kompleks" MChJ

rahbari Jafar Tursunov tomonidan sanoat zonasi-dagi 1 gektar maydonda umumiy qiymati 1 million dollar bo'lgan elektr texnika jihozlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmog'na. Kelgusi yilda faoliyat boshlaydigan korxonada 40 ta ish o'rni yaratiladi va yiliga 21,1 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Bundan tashqari, "Paradise white gold textile" MChJ tomonidan 3 gektar maydonda yiliga 60 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega va 600 nafar qishloq aholisi bandligi ta'minlanadigan tikuvchilik fabrikasi qurilmog'na. Tadbirkor Shokir Eshonqulovning 500 ming dollar o'z mablag'i hamda yana shuncha miqdordagi bank krediti hisobiga tashkil etayotgan "Silver green tea" oilaviy korxonasi choy qadoqlash yo'lga qo'yiladi. "Sam Ideal Milk" MChJning umumiy qiymati 620 ming AQSh dollari bo'lgan muzqaymoq ishlab chiqarish loyihasi ham 2024 yilda ishga tushiriladi va 25 ta ish o'rni yaratiladi.

Payariq tumani hokimligi axborot xizmati.

Tanishing: Prezident stipendiatlari

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining joriy yil 4-dekabrda buyrug'iga asosan, respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarini iqtidorli talabalariga davlat stipendiyalari tayinlandi. 2023-2024-o'quv yili uchun bakalavriat bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga sazovor bo'lganlar orasida Samarqanddagi oliy ta'lim muassasalarining quyidagi talabalar bor:

Kamola Toshpo'latova - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi) yo'nalishi talabasi;

Rahmatillo Abdumalikov - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligi) yo'nalishi talabasi;

Shaxriyor Rahimov - Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining arxitektura (turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi;

Ramiz Shavazi - Samarqand davlat tibbiyot universitetining davolash ishi yo'nalishi talabasi;

Saidmuhammad Ibodullayev - Samarqand davlat universitetining yuristprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi;

Ra'no Ziyotova - Samarqand davlat chet tillar institutining tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabasi;

Jahongir Mamarizoyev - Samarqand iqtisodiyot va servis institutining iqtisodiyot yo'nalishi talabasi;

Bejan Normahmadov - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining telekommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi talabasi.

Shuningdek, Samarqanddagi oliy ta'lim muassasalarining 45 nafar talabasi Navoiy, Islom Karimov, Beruniy, Ulug'bek, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyalariga sazovor bo'ldi.

Odatda ko'p davlatlar konstitutsiyasi nufuzli ekspertlar, deputatlar tomonidan ishlab chiqilib, so'ngra parlamentda qabul qilinadi. Bunday hujjatlar mutaxassis nuqtai nazaridan yuqori baholarga sazovor bo'lsa-da, unda xalqchilik, xalq ruhiyati yetishmaydi.

Ayrim davlatlar hatto asosiy qonunlarining referendumda, xalq ishtirokida qabul qilingani bilan faxrlanishadi. Albatta, bu eng oliy darajadagi qaror. Biroq bu jarayonda xalq oldida faqat ikki savoldan biriga javob berish imkonigina bo'ladi: konstitutsiya matnini tasdiqlash yoki rad etish.

Yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xosligi shundaki, u ikki marotaba xalq muhokamasida yurtdoshlarimiz xohish-irodasi bilan boyitildi. Umumxalq muhokamasi davomida Konstitutsiya loyihasi yu-

"O'zbekiston xalqi" deb boshlanadi

zasidan jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza bildirilgan.

Ma'lumki, davlat va jamiyat hayotida ba'zi bir narsalar bo'ladi, u Vatanimiz kabi yagonadir: bayrog'imiz bitta, gerbimiz bitta, madhiyamiz bitta, shu qatori Konstitutsiyamiz ham bitta. Bularning har biri o'z timsolida ona Vatanimiz, xalqimizning ezgu-maqsadlarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi muqaddasd.

Bosh qomusimiz muqaddimasida mamlakatimiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar tinchligi va

milliy totuvligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. Ya'ni, Konstitutsiyamizning asosiy mohiyati insonga munosib hayot sharoitlari yaratish, uni baxtli qilishdan iborat.

Yana muhim hamda xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etiladigan xususiyat - bu Konstitutsiyaning "O'zbekiston xalqi" deb boshlanishidir. Bunday jumalarni boshqa biron bir qonunda uchratmaymiz. Buning o'zi ham xalq hokimiyatchiligining yorqin dalolati.

Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko'ra, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar-

ning huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyiligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.

Qayd etish joizki, dunyodagi eng rivojlangan davlatlar konstitutsiyalari bilan raqobatlashadigan Konstitutsiyani ishlab chiqish va qabul qilish masalaning bir jihati. Masalaning boshqa bir muhim tomoni, qabul qilingan hujjatni hayotimizga samarali tatbiq etishda namoyon bo'ladi. Bu Konstitutsiyada ko'zlagan maqsadlarimizning eng muhim shartidir.

Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda kafolatlangan huquqlardan har birimiz o'z o'rnida foydalana olsak, hamisha, har yerda huquqlarimiz ta'minlanishiga erishamiz.

**Gulandon OCHILOVA,
SamDU Urgut filiali o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi.**

Yaqinlariga, kasbiga mehri baland inson edi

Shaxs tushunchasi haqida ko'plab fikrlar bor. Menimcha, shaxs o'ziga va jamiyatga, atrofdagilarga befarq bo'lmagan, yurti uchun kerak bo'lsa, jonini tika oladiganlardir. Shunday mazmun-mohiyat va ma'nodagi shaxs Jamol Isroilov edi.

Maqolamiz qahramoni tom ma'noda nurli shaxs edi. Chunki bunday insonlar tirikligida ham, o'tganidan keyin ham mehr taratib turadi, odamlar qalbiga nur, umid, ishonch, imon va e'tiqod singdirib yashaydi.

J.Isroilovning otasi Ibrohim boboning 11 farzandi bor edi.

Padari buzrukvori vafot etgach, oilaning katta farzandi bo'lgan yosh

Jamol barcha opa-singillari, ukalarini moddiy ta'minlash, tarbiyalash, o'qitish, uylantirish vazifalarini o'z zimmasiga oldi. O'qitdi, uyli-joyli qildi va ularni el xizmatiga yaraydigan qobil insonlar etib tarbiyaladi.

Yoshim saksonga yaqinlashdi. Faoliyatimda Moskva, Leningrad, Kiyev, Lvov va Markaziy Osiyoning barcha shaharlarida ko'plab insonlar bilan uchrashdim. Shu davrda uchrashgan insonlarni tahlil qilib, xulosa qildimki, Jamol Ibragimovich kabi insonlar kam uchradi va bunday kishilar Yaratganning bandalariga in'omi ekan. Sababi, u bir vaqtning o'zida "Iqtidorli bolalar maktabi" rahbari, SamSI dotsenti, tadbirkor-quruvchi, sadoqatli do'st, saxovatli inson va silayi rahmli kishi edi.

J.Isroilovning tadbirkorlik sohasidagi faoliyatini mukammal ochib berish qiyin. Chunki u beshta xususiy firma ochib, ularga rahbarlik qilar, tadbirkorlik tushunchasi hali shakllanmagan sobiq ittifoq davrlaridayoq katta biznes bilan shug'ullanardi.

Jamol Ibragimovichni 1995-yildan buyon bilaman. Haftada kamida 2-3 kun birga bo'lardik. Suhbatlarimiz inson, jamiyat va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olardi. Hamisha o'rinni gapni o'rnida, kerakli odamlarga gapirardi. Qilgan yaxshiligi, ehsoni yoki boshqa yordamlarini oshkor etishlarini xushlamasdi. Shu tufayli u kishi hamkasblari orasida obro', e'tibor qozondi, el nazariga tushdi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi J.Isroilov bugun hayot bo'lganida 70 yoshni qarshilagan bo'lardi.

O'lim haq ekan, unga o'xshagan insonlarni shaxs sifatida yod olib, elga sadoqat bilan qilgan xizmatlarini qadrlab, undan ibrat olib yashashning o'zi ham bir saodat ekan.

Qarindoshlariga g'oyat mehribon, qalbi quyosh inson Jamol Ibragimovichning xotirasi, u qoldirgan ibratli va xayrli ishlar qalbimizda abadiy yashaydi.

Shoir aytganidek:

*Dard kelsa, g'am kelsa, yutdik biz,
Kutdik biz, kutdik biz, kutdik biz.
Qabr deb atamang bu joyni,
U uydun bu uyga o'tdik biz.*

Jamol Isroilovning so'nggi uyini O'zi imon nurlari bilan yorug' qilsin!

**Mamayunus PARDAEV,
SamSI professori.**



Toyloqda elektrdan muammo bo'lmaydimi?

Savolga "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali tomonidan Toyloq tumani elektr ta'minoti tizimini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish maqsadida tashkil etilgan press-turda tuman hokimi Bahodir Bobonazarov javob berdi.

O'tgan yil qishda kuzatilgan anomal sovuqdagi holatlardan xulosa chiqarib, bu yil mavsumga yaxshi tayyorgarlik ko'rildi, - deydi B.Bobonazarov. - Mavsum oldidan sektor rahbarlari, tuman elektr, gaz va suv, oqova tizimi mutaxassislari bilan birgalikda joylarda o'rganishlar olib borilib, kamchiliklar bartaraf etildi. Jumladan, elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 400 ga yaqin beton ustun va tarmoq tortish uchun mahalliy budjetdan mablag' ajratildi. Shuningdek, homiyar va aholi tomonidan 20 dan ortiq transformator o'rnatildi. Tuman elektr ta'minoti korxonasi tomonidan tarmoq tortish ishlari davom etmoqda. Bu yil qishda tumanda elektrdan muammo bo'lmaydi.

Press-tur davomida ishtirokchilar tuman elektr ta'minoti korxonasi tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish borasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi.

Toyloq tuman elektr ta'minoti korxonasiga qarashli uchta podstantsiya va bitta tarqatuvchi punkt mavjud. Tumanda 6-10 kWli tarmoqlar 48 ta bo'lib, shundan 35 ta havo tarmog'i tuman elektr ta'minoti korxonasi, 13 tasi esa iste'molchilar hisobida.

Tumanda 761 dona transformator punkti mavjud, - deydi tuman elektr tarmoqlari korxonasi rahbari Akbar Siddiqov. - Mavsumga hozirlik ko'rish davomida 64 ta transformator va 128,3 kilometr elektr tarmog'i mukammal, 79 ta transformator punkti hamda 216,59 kilometr havo tarmog'i joriy ta'mirlandi. 15 ta yangi transformator o'rnatilib, 908 ta beton ustun almashtirildi. Tizimdagi avariya holatlarini bartaraf etish uchun 5 ta navbatchi brigada tashkil etilgan bo'lib, ularga to'rttadan xodim birkirilgan.

Press-tur doirasida tumanning G'o'lba mahallasidagi Zarobod qishlog'ida bo'ldik. Toyloq tuman elektr ta'minoti korxonasi qurilish brigadasi boshlig'i San'at To'xtayevning aytishicha, qishloqqa 44 ta temir-beton ustun olib kelinib, 1,3 kilometr elektr uzatish kabeli tortilmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Ijodkor yoshlar bellashuvi

Samarqand shahridagi Markaziy harbiy okrug ma'naviyat va ma'rifat markazida "Vatan taraqqiyotiga mening hissam" nomli respublika tanloving viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar "Tasviriy va amaliy san'at", "Adabiyot", "Milliy maqom va milliy estrada" yo'nalishlarida iqtidorlarini namoyish qilishdi.

- Ilm-fan, san'at va madaniyat, zamonaviy axborot texnologiyalari, badiiy ijod sohalarida faoliyat yuritayotgan va yuqori natijalarga erishayotgan iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni munosib rag'batlantirish tanloving asosiy maqsadi, - deydi Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Farhod Nazarov. - Shuningdek, iste'dodli va tashabbuskor yoshlarning ushbu sohalardagi salohiyatini namoyon qilishi, yuqori natijalarni qo'lga kiritishi uchun imkoniyatlar yaratish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat.

Tanlovda barcha yo'nalishlar bo'yicha g'oliblar aniqlanib, uning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Shuningdek, faol ishtirokchilar va turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritganlar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

Akademik litseylar maktabdan farq qilishi kerak

Akademik litseyda o'qituvchi bo'lganim bois litseylar faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq ayrim takliflarimni bildirmoqchiman. Bugun huquqiy davlatni barpo etish yoshlar qo'lida ekan, akademik litseylarda huquqiy fanlarni samarali o'qitish kerak. Lekin negadir akademik litseylarda huquqiy fanlarning soatlari kam.

O'quv fani yuzasidan esa akademik litseylarda hali hanuz darslik mavjud emas. O'quv dasturida yangilangan Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha o'quv soatlari ko'rsatilmagan. Bugun barcha fanlardan fan olimpiadalari o'tkazilmoqda, ammo huquqshunoslik doirasida olimpiadalar yo'q. O'qituvchi o'z fanini ma'lum bir manba yoxud darslik asosida o'tmasa, uning samaradorligi ham sezilmaydi. Bilimni baholash agentligi oliy ta'lim muassasalariga kirish test savollarini maktab darsliklari asosida tuzadi. Shundan kelib chiqqan akademik litsey o'qituvchilari ushbu darsliklar asosida o'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlaydi. Bunday olib qara-

sak, maktab va akademik litseylarning vazifasi bir xildek, ya'ni oliy ta'limga tayyorlash.

Hozirda maktab yaxshi o'quvchining akademik litseyga borishini istamaydi, uni o'zida olib qolishga harakat qiladi. Shuning uchun akademik litseyga tanlovda past ball olgan o'quvchilar ham qabul qilinayapti.

Maktab va akademik litseylarda raqobat muhitini tashkil etishning muhim sharti - bu oliy ta'limga qabulni alohida-alohida tashkil etish.

**Sohiba QODIROVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Sham-siddinov Zafar Sayfiddinovichga (2023-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Shadiyev Abdutalip Esirgapovichga (2022-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Voskanyan Rafael Isosifovichga (2023-yil 19-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Xamrayev Raxmat Sabirovichga (2014-yil 19-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Til-layev Faxridin Eshtemirovichga (2020-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Vafayeva Vera Nikolayevna (2009-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Seit-Veliyeva Shevkiyega (2023-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

BEKOR QILINADI
Fuqaro Ruziev Xusen Kurbonovichga qarashli Samarqand tumani "Diyor" MFY, Samarqand ko'chasi, 158-uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami (kadastr raqami 14:12:08:03:11:0299) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "I-BYTE" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310162244) dumaloq muhri va burchak

tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi "Boburjon Farovon Agro" fermer xo'jaligining (STIR: 305572979) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Toshurdieva Muxlisa Musurmon qizining O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi (AD 1044564, 31.01.2022 yilda IIV 18227-tdan berilgan) Past Darg'om tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99891-702-32-05.

Fuqaro Turayev Lutfulla Baxtiyarovichning haydovchilik guvohnomasi Past Darg'om tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99891-554-46-72.

Sakson to'rt yoshga kirdim. Hayotning kutilgan va kutilmagan tasodif va voqealarini boshimdan kechirdim. Shukr, bugun turmush o'rtog'im bilan bir-birimizga suyanib, bir-birimizni qo'llab yashayapmiz. Asli qonimda borligi uchunmi, turmushda bo'layotgan voqealarga yoshligimdan bafarq emasman, hozir ham nomunosib xatti-harakatlarni, holatlarni ko'rsam, chidab turolmayman. Shuning uchun bo'lsa kerak, mendan u yoki bu masala yuzasidan maslahat so'rovchilar kam emas. Lekin bugun "Zarafshon" mushtariylari bilan juda muhim mavzuni muhokama qilmoqchiman. U ham bo'lsa - xalq odatlari va an'analar.

An'analarga darz ketmasin



An'analar odatda bir hududda yashovchi xalq yaratadi. Bu an'analar eng avvalo, o'sha hududning jug'rofiy joylashuvi, ob-havosi hamda aholisining mashg'uloti va fe'ldan kelib chiqadi. Milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz asrlar davomida ana shunday shakllangan. Albatta, ba'zan bir hududning an'anasini, odati ikkinchi hududda ham amal qilishi, hatto bir mintaqada yashovchi turli millatlarning urf-odatlari bir-biriga qo'shilib, o'xshab ketishi mumkin. Ammo men bugun milliy an'analarni davlat tarixi qadriyatlarimizga mos bo'lmagan holatlar ro'yi berayotganligini aytib o'tmoqchiman. Zero, bu haqda televideniye, gazeta, jurnallarda, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p yozilyapti, aytilyapti. Ijodkorlar hatto bong urishyapti. Ammo uning sabablarini chuqur o'rganmayapmiz. Oqibati bilan kurashib, ayrim illatlarning takrorlanishini o'ldirib olmayapmiz.

Oila davrasi qadimdan shuncha-ki ovqatlanish uchun uyushtirilgan. Bolaligimni eslayman. Xonadonimizda bir mahal - faqat kechqurun ovqat pishirilardi, kunduzi esa non, qand-qurs, bog' ne'matlaridan tanovul qilib kifoyalanganimiz. Kechqurungi suhbat oilaning hisobotiga o'xshardi, ota-onamiz har birimizning qilgan ishimizga baho berardi. Bundan tashqari, ularga badiiy asarlardan parchalar, she'rlar o'qib berardik. Bugun-chi?

Bugun biz televizor va telefon degan matohlarga yopishib oldik. Maktab va oliy o'quv yurtlarida bilim uchun emas, shahodatnoma yoki diplom uchun o'qiyapmiz. Kasb o'rganishda ham zamonaviy, daromadli kasblarni ko'zlab, ro'zg'or tebratish uchun yetarli bo'lgan kasblarni unutib qo'yayapmiz. Unutib deganim, qadriy jo'ya qo'ymayapmiz. Nazarimda buning sababi uyda ota-ona tomonidan farzandlarning mehnatga o'rgatilmaganligidir. Buning ustiga bolalar maktabda ham mehnatga jalb etilmayapti. Vaholanki ish jarayoni insonning ruhiyatini, boshqalar bilan munosabatini shakllantiradi, aqlini charxlaydi. Tabiiyki, odob-axloq buzuq bolalar bilim egallash ishtiyogidan yiroq bo'lishadi.

Kamina haligacha mobil telefondan foydalanmayman, velosipedda yuraman, haftada ikki-uch marotaba cho'milishga boraman. Kuniga ikki-uch xil gazeta o'qiyman, badiiy kitoblarni varaqlayman. Ochig'ini, ba'zan shu gaplarni aytсам, meni tinglayotganlar menga ishonmaganidek qarashadi. Tuman FHDY bo'limi bilan kelishib, ular qoshida kelin-kuyovlar xalq universitetini ochdik. Yoshlariga mustaqil hayot sirlarini qo'lmdan kelganicha aytib berapman. Albatta, eshitishga ishtiyqli bo'rlari yo'q emas, lekin ko'pchiligida hafsala sezmayman. Hayotimdagi yaxshi-yomon voqealarni ularga aynan aytib, ulardan xulosalar chiqarishga undayman. Nazarimda bunday tabirlarni ko'paytirishimiz va

kuchaytirishimiz kerakka o'xshaydi. To'ylardagi an'analarni ham xira tortgandek. Aqiqalar katta to'ygacha, sunnat to'ylari hashamatli festivalga, nikoh to'ylari esa ikki-uch kunlik tomoshalarga aylanib ketyapti. Ayniqsa, kelin-kuyov to'ylariga sarflanayotgan behisob mablag'lar ularning yaxshi kunlariga xizmat qilmayapti. Chunki ko'pincha yosh farzandlarimiz hali mustaqil hayotga tayyor bo'lmagan ularni uylantirib qo'yayapmiz.

To'ylarda, agar nahor oshlarni hisobga olmasak, keksalarning duosi yo'q, hisob. Kelinga, kuyovga to'y oldidan nasihatlar telefon orqali, tag'in hayot ko'rgan odamlar emas, balki do'st-dugona tomondan aytilyapti.

Yaqinda Ozarbayjon va turk xalqlarining nikoh to'yidagi bir odati haqida o'qib qoldim. To'y tugagach, mehmonlar ko'z o'ngida kelin-kuyov, ularning tutingan ota-onasi sal balandroq joyga chiqib, hammaga salom berarkan. Shunda mehmonlardan tajribali ayollardan biri bir chelakda suv va chinni piyola olib chiqib, "Kelinning tilini kesamizmi, dillini kesamizmi?" deb hazilomuz so'rar ekan. Pastdan esa "Tilini kesamiz" degan baralla ovoz eshitilar ekan. Haligi ayol "E, barakalla, mana kelinning tili kesildi", deb suvni kelin-kuyovga va atrofdagi to'g'irlarga piyolada sepib yuborarkan. "Tili kesilsin" degan iboraning mazmuni kelin ikki nafar farzandlik bo'lguncha o'ldiradi har xil yetishmovchilik uchun asab qilmas va janjal ko'tarmas ekan. Mabodo eridan ranjisa, qaynota-qaynonasi, ota-onasi emas, balki tutingan ota-onasiga murojaat qiladi, ular esa kuyov bilan tushuntirish ishlari olib borar ekan.

Bizda ham xuddi shunga o'xshash ajoyib an'analarni bor edi. Ming afsuski, ularni bugun qo'llamayapmiz.

Farzandimizni yaxshi ko'ramiz, bolajon xalqmiz. Ammo biz ularni qo'lidan yetaklab, maktabga olib bormaymiz, yo'l-yo'lakay ular bilan maktab, hayot, ilm haqida suhbatlashmaymiz. Oliy o'quv yurtlaridagi o'g'il-qizlarimiz ham o'z o'qishi yuzasidan ota-onasi bilan deyarli muloqot qilishmaydi. Vaholanki, biz maktabdagi har bir harakatimiz to'g'irisida oilada hisobot berganmiz, ota-ona fikrini olganmiz.

Men bu gaplarni bejiz aytmadim, chunki hayotdagi nizolarning ko'pi aynan ana shu an'analarni tartibiga darz ketganligi tufayli yuzaga kelyapti deb hisoblayman. Ming afsuski, bugun hammamiz hayotimizdagi nomutanosiblik uchun bir-birimizni ayblash bilan ovoramiz. Hech kim aybni o'zidan qidirmaydi. Endi o'z o'zidan savol tug'iladi: an'analarni xalq yaratarkan ekan, bugungi holat uchun ana shu an'analarni quvvatsiz qilyotgan ota-onalar sababchimi yoki ularga rioya qilishni istamayotgan yoshlarmi?

Kamina bu yuzasidan ko'pchilikning fikrini bilmoqchiman.

Qahramon NAMOZOV, Ishtixon tumani.

Bolalarni erta rivojlantirishning yagona maqsadi kelajakda daholarni emas, balki aqlli, sog'lom, tirishqoq, zehni o'tkir, biror ishga qunt bilan yondashadigan va kattalarga quloq soladigan bolani tarbiya qilishdir.

Yaponiyalik yozuvchi Masaru Ibuka o'zining "Uchdan keyin kech" asarida yozadiki, bola aqliy qobiliyatini rivojlantirishining uning dastlabki 3 yoshigacha bo'lgan muddatda amalga oshadi va miya hujayralari rivojlanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi barcha insonlar bir xil holatda dunyoga keladi va ularning keyingi hayotida qanday inson bo'lishi bu uning erta yoshdan rivojlantirilishiga bog'liq.

BOLANI ERTA RIVOJLANTIRISH UNING QIZIQSHLARINI CHEKLAB QO'YMAIDIMI?

Yo'q. Har bir bola individual va hech qaysi bola iqtidor va xarakter jihatidan boshqa bolani takrorlamaydi. Va yana shuni ta'kidlash kerakki, bola uchun qiyin narsaning o'zi yo'q, u atrof-muhitni qancha erta yoshdan kashf qilsa, shuncha yaxshi.

HAR BIR ONA - O'QITUVCHI, DEGANDA NIMANI NAZARDA TUTASIZ?

Bola tug'ilganidan boshlab to'vayaga yetgunicha uning yonida bo'ladigan inson - bu uning onasi. Ona qancha aqli va dono bo'lsa, u g'amxo'rlik

Bolani erta rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?



qiladigan bolalar ham xuddi shunday bo'ladi. Ona farzandiga to'g'ri munosabatda bo'lsa, unga to'g'ri muhit yaratib berolsa, erta yoshdan qiziqishlarini kuzatib borsin, har bir bola aqli, sog'lom, yashirin qobiliyatlari yuzaga chiqarilgan va kelajagi porloq shaxsga aylanadi.

BOLALARNI ERTA RIVOJLANTIRISHDA ONALAR YO'L QO'YADIGAN XATOLAR

Avvalo, bolaning rivojlanishi uchun uyda sog'lom muhit yaratilishi kerak. Bola uchun qiziqarli va uning e'tiborini tortadigan narsalar bilan bezatilgan xonadan ko'ra bo'm-bo'sh xona xavfliroq. Chunki bo'sh xona bolaning hayotida bo'shliq hosil qila boshlaydi. Bu esa bolaning ham emotsional, ham aqliy rivojlanishida o'zgarishlarga olib keladi.

HAR BIR ONA QILISHI LOZIM BO'LGAN AMALLAR QAYSILAR?

Eng birinchisi - bu bolani tinglay olishi, uning nima xohlashini tushunishi. Bolaning kun tartibini to'g'ri reja asosida shakllantirishi, chunki bolalar tartibni yaxshi ko'rishadi.

Masalan, ovqatdan keyin tishni yuvish va undan keyin kitob o'qish kabi rejalangan kun tartibi bolaning xotirjamligiga olib keladi. Eng muhimi, onaning bolaga kitob o'qib berishi va uni kitoblarga qiziqitira olishi. Bolaning yoshiga mos ravishda kitob tanlay olishi ham muhim.

BOLANING TELEFON VA TELEVIZORGA QARAM BO'LIB QOLISHNING ASOSIY SABABI NIMA?

Buning asosiy sababi - vaqtida berilmagan mehr va e'tibor. Shu o'rinda onalarga aytar so'zim, bugun bolangizdan vaqtningizni qizg'anib, saranjom qilgan uyingiz ikki soatdan keyin yana to'ziydi. Ota-onam bilan sayrga chiqamiz deb kutilgan yakshanba ota telefonida, ona uy tozalash bilan band bo'lsa, bola yana o'zini yolg'iz sezadi. Shuningdek, e'tibordan chetda, mehr berilmagan bola siz kutgan hosilni bermaydi.

BOLAGA XORIJIY TILLARNI NECHA YOSHDA BOSHLAB O'RGATGAN MA'QUL?

Bola ona qornida 24 haftaligidan onasining ovozi-

ni eshita boshlaydi. Shundan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, bolaga ona qornida bo'lgan davrdan boshlab tilni o'rgatish mumkin. Onaning boshqa tilda kitob o'qib berishi va bola bilan ko'proq muloqot qilishi bu ba'zi hollarda bolaning aynan o'sha tilda tili chiqishiga ham olib keladi. Bolaga erta yoshdan ikki yoki undan ortiq tillarni o'rgatish bu uning kelajakda yaxshi tilshunos bo'lishi uchun qilinmaydi, balki bolaning miya hujayralari yaxshi rivojlanishi, qobiliyatini yuzaga chiqarish va uning dunyosiga rang-baranglik olib kirish uchun bajariladi.

BOLANI BOG'CHAGA NECHA YOSHDA BOSHLAB BERISH LOZIM?

O'zbekiston Respublikasida bog'cha yoshi 3 yosh deb belgilangan. Bu bejiz emas, chunki 3 yoshigacha bola onasi bera olgan ko'nikmalarini o'zlashtirib bo'ladi, miya salohiyati 80 foizga yetadi. Bolaning 3 yoshiga qadar onaning o'rni beqiyosdir. Aynan ona o'z sa'y-harakatlari orqali bolaning kelajakda qanday inson bo'lishiga tamal toshini qo'yadi. Masalan, "Seni bog'cha opang tarbiya qilsin", "Dushanba kelaqolsa edi, bog'cha seni ko'zingni o'ysin", deydi onalar bog'cha opa hech qachon farzandiga onadek tarbiya berolmasligini tushunib yetishi kerak. Tarbiyachi opa bergan tarbiya farzandni tamoman boshqa insonga aylantirishi mumkin. Bolaning rivojlanishi aynan onalarga bog'liq.

Barno RO'ZIQULOVA, Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti.

Narpay tumanida 70 ta maktab mavjud bo'lib, 2022-2023-o'quv yilida bu ta'lim muassasalarini 2295 nafar o'quvchi tamomlagan. Ularning 191 nafari davlat granti asosida, 495 nafari esa to'lov-shartnoma asosida oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilingan. 686 nafar bitiruvchi talaba bo'lishi natijasida tuman bu yo'nalishda viloyatda uchinchi o'rinni egalladi.

Bitiruvchilarining barchasi talaba bo'lgan maktab



17-umumiy o'rta ta'lim maktabi tumanda boshqa ta'lim muassasalariga namuna bo'lib kelyapti. O'tgan o'quv yilida maktab bitiruvchilarining barchasi talabaliikka qabul qilingan.

- Ta'lim muassasamizda 1130 nafar o'quvchiga 74 nafar o'qituvchi dars beradi, - deydi maktab direktori Marhabo Jabborova. - Ularning 15 nafari oliy toifaga ega. 2022-2023-o'quv yilida maktabimizda 39 ta fan va sport to'garaklari tashkil etilgan. Ularning barchasi bepul xizmat ko'rsatadi. Maktabda o'qituvchilarning har bir natijasi monitoring qilib boriladi. Samarali mehnat qilayotgan ustozlar munosib rag'batlantiriladi.

Shuningdek, pullik xizmat ko'rsatuvchi 2 ta o'quv markazi filiali uchun ham maktabdan joy ajratilgan. O'quvchilar pullik to'garaklarda qo'shimcha ta'lim olish istagida bo'lsa ham maktab hovlisidan tashqariga chiqmaydi. Bu maktabni bitirganlar orasida respublikamizning turli hududlaridagi nufuzli tashkilotlarda rahbarlik qilayotgan ziyolilar talaygina. Urgut tumani hokimi Botir Jabborov va Narpay tumani hokimi Sherzod Rahmonov ham shu maktabda o'qigan.

To'lqin SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Sog'lom hayotimga gazeta sabab bo'ldi

"Odam Ato va Momo Havo zamonasidan buyon - eng muhim muammo odamlar umrini uzaytirishdir, deb yozadi Pol Bregg o'zining "Ixtiyoriy ochlik mo'jizasi" kitobida. Hech bir kishiga o'limgan qochib qutulish imkoni berilmagan, lekin har birimiz gigiyena va parhezning ma'lum qoidalari-ga rioya qilgan holda umrni uzaytirishimiz mumkin. Har bir inson o'zi, yaqinlari va do'stlari, boringki, Vatani uchun shunday qilishga burchlidir".

Har bir kishining o'z salomatligini, tanasini parvarish qilmoq' i jamiyat uchun o'ta muhimdir. Men har bir kishining 120 yil va undan ham ko'proq yashashi mumkin, balki burchli ekanligiga ishonaman. Salomatlikni sotib olib bo'lmaydi. Lekin sabot va tirishqoqlik bilan, doimiy harakatda bo'lib, uzoq umr ko'rishi, salomat yurishi mumkin. Men o'zim salomatligimni mashaqqatli mehnat tufayli topganman. Yilning 365 kuni davomida sog'man, menda hech qanday og'riqlar, charchoqlar, tanadagi bezovtaliqlar bo'lmaydi. Siz ham ana shunday natijalarga erishishingiz mumkin.



Pol Bregg butun umri davomida odamlarga o'z jismoniy imkoniyatlarini takomillashtirish va salomatliklarini mustahkamlash usullarini tushuntirardi. Shu sarlavha ostidagi maqolani "Zarafshon" gazetasining 1994-yil 19-may sonida o'qiganman. Bu olimning barcha kitoblaridan o'qib o'rganganlarim bo'yicha haftasiga 24 soat ro'za tutib, 155 ta jismoniy mashqlarni qariyb 30 yildan buyon muntazam bajarib kelmoqdaman.

"Sog'lom tanda sog' aql" deyiladi, lekin sog'lom bo'lish uchun ham aqli bo'lmoq kerak. Ayni shu kitob sog'lom, chiroyli bo'lib yashashingizda, albatta, sizga aql bo'la oladi degan umiddaman.

Rustam SUYAROV, mehnat faxriysi, Kattaqo'rg'on shahri.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 388 nusxada chop etildi. Buyurtma 667. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X
9 1772010667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda